

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

VALIYEVA SAYYORA XUSHBAQOVNA

O‘ZBEKISTONDA INVESTITSIYA LOYIHALARINING
IQTISODIY SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent shahri – 2023-yil

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
economical sciences**

Valiyeva Sayyora Xushbaqovna

О'zbekistonda investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini takomillashtirish..... 3

Валиева Сайёра Хушбаковна

Совершенствование экономической эффективности инвестиционных проектов в
Узбекистане..... 27

Valieva Sayyora Khushbakovna

Improving the economic efficiency of investment projects in Uzbekistan..... 53

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 57

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

VALIYEVA SAYYORA XUSHBAQOVNA

**O‘ZBEKISTONDA INVESTITSIYA LOYIHALARINING
IQTISODIY SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2023-yil

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Iqt1794 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tuxliev Bozor Karimovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar

Karlibaeva Raya Xodjabaevna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Iminov Odil Karimovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent moliya instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "23" 11 soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1365 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "6" 11 kuni tarqatildi.
(2023-yil "6" 11 dagi 63- raqamli reestr bayonnomasi).



M.P.Eshov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi i.f.d., professor

U.V.Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.d., professor

S.K.Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda kechayotgan globallashuv jarayonlari tezlashib borayotgan hozirgi davrda yirik investitsiya kompaniyalari rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga o'z mablag'larini rivojlangan mamlakatlarga nisbatan ikki barobar ko'proq yo'naltirmoqda. Shuningdek, jahonda iqtisodiyotni integratsiyalashuvi jarayonida mamlakat barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlashda faol investitsiya siyosatini olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, iqtisodiy o'sish sur'atlari yuqoriligini ta'minlashda milliy iqtisodiyotlarga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Dunyoda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 2021-yilda 64 foizga oshib, 1,58 trln. dollarga, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa 30 foizga oshib, 837 mlrd. dollarga yetdi"¹. Xalqaro raqobat mamlakatlarni investitsiya resurslaridan samarali foydalanishga va investitsiya resurslari samarasini oshirishga undamoqda.

Dunyo mamlakatlarida investitsiya resurslarini jalb qilish mexanizmini takomillashtirish, ularning istiqbolli tarmoqlarga kirishini rag'batlantirish va ulardan samarali foydalanishda investitsiya loyihalari sifatini oshirish muammolari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Oxirgi o'n yillikda jahon iqtisodiyotidagi yuzaga kelayotgan nobarqarorlikning oldini olish, saqlanib qolayotgan turli tahdidlarni bartaraf etish, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda o'sish sur'atlari pasayishini to'xtatish, dunyoda investitsiyalarni jalb qilish va loyihalarning iqtisodiy samaradorligi aniqlash, investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini hisoblashda yangi usullarni joriy etish mazkur tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va raqobatdoshligini kuchaytirishda investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish ustuvor yo'nalish sifatida tanlangan. Global pandemiya sharoitida mamlakatda "asosiy kapitalga investitsiyalarning hajmi 2020-yilda 4,4 foizga kamaydi, 2021-yilda esa 5,1 foizga oshib, 239,5 trln. so'mni tashkil etdi"². Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham iqtisodiyotga investitsiyalarni faol jalb qilish bo'yicha aniq vazifalar belgilangan. Unga ko'ra "mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish sharoitida kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish"³ vazifasi alohida belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 14-maydagi PF-5717-son "O'zbekiston Respublikasi investitsiya dasturini shakllantirish va amalga oshirishning sifat jihatidan yangi

¹<https://worldinvestmentreport.unctad.org/world-investment-report-2022/chapter-1-global-investment-trends-and-prospects/#fdi-flows>.

²<https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments>.

³O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni // <https://lex.uz/docs/5841063>.

tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida", 2016-yil 26-oktabrdagi PF-4853-son "Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2016-yil 5-oktabrdagi PF-4848-son "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiyl mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari, 2021-yil 30-dekabrda PQ-72-son "O'zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to'g'risida"gi qarori hamda mazkur soha faoliyatiga doir boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublikamizdagi fan va texnologiyalar taraqqiyotining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakat iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish uning manbalarini shakllantirish, qulay investitsiya muhitini yaratish, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiya faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini takomillashtirish kabi qator masalalar ko'plab iqtisodchi olimlar va mutaxassislarning ilmiy tadqiqotlarida atroflicha yoritilgan. Jumladan, klassik iqtisodiyot namoyondalari A.Smit, D.Rikardo va U.Petti, shuningdek, P.Samuelson, Yu.Fisher va boshqalarning asarlarida moliya resurslari va mexanizmlari, jumladan, investitsiyalarning ilmiy-nazariy va uslubiy asoslari keng tadqiq etilgan va ishlab chiqilgan.

Investitsiyalarni ishlab chiqarishga jalb etish va ulardan samarali foydalanish muammolari xorijlik iqtisodchilar L.Alfaro, N.Bayraktar, Ye.Gribova, K.Guadalupe, P.Jadxav, X.Degregorio, D.Danning, Yu.Zaysev, D.Kim, K.Kojima, R.Lipsey, R.Narula, T.Ozava, Ye.Popov, S.Saksonova, L.Sanjaya, S.Xaymer, F.Xiolan, K.Xed, Y.Xuang va boshqa olimlar tadqiqotlarida o'z aksini topgan⁴.

Shuningdek, bu boradagi mavjud muammolarning o'ziga xos ilmiy va amaliy jihatlari Respublikamizning bir qancha iqtisodchi-olimlari, jumladan,

⁴Alfaro L. "Gains from Foreign Direct Investment: Macro and Micro Approaches." *World Bank Economic Review* (2016): 1–14.; Bayraktar N. *Foreign Direct Investment and Investment Climate* // *Procedia Economics and Finance*. 2013. Vol. 5. P. 83–92.; Грибова Е.В. «Инвестиционный климат в России: приток и отток иностранного капитала» // *Экономический анализ: теория и практика*, №12(315), 2013. С.27-37.; C.Guadalupe, J.Rivera, G.Castro *Foreign direct investment in Mexico Determinants and its effect on income inequality*// *Contaduría y Administración*. 2013. Vol. 58. № 4. P. 201–222.; P.Jadhav *Determinants of foreign direct investment in BRICS economies: Analysis of economic, institutional and political factor* // *Procedia – Social and Behavioral Sciences*. 2012. Vol. 37. P. 5-14.; De Gregorio J. «The role of foreign direct investment and natural resources in economic development». 2003. Working Paper No 196. Central Bank of Chile, Santiago.; Dunning, J.H. *The Eclectic (OLI) Paradigm of International production: Past, Present and Future*, *International Journal of the Economics of Business*, 8(2), 2001, pp. 173-190; Зайцев Ю.К. «Диагностика притока прямых иностранных инвестиций в Россию: от теории к практике» // *Экономический анализ: теория и практика*, №19(418), 2015. С.16-25.; Kim, D. D. and J. Seo 'Does FDI Inflow Crowd out Domestic Investment in Korea?' // *Journal of Economic Studies*, 2003. 30 (6): 605-22.; Kojima K. *The flying geese model of Asian economic development: Origin, theoretical extensions, and regional policy implication*// *Journal of Asian Economics*, 11(4): 375-401.; va boshqalar.

D.G.G'ozibekov, A.V.Vahobov, N.X.Jumayev, N.H.Xaydarov, A.S.Jo'rayev, M.P.Eshov, S.K.Xudoyqulov, A.U.Burxanov, E.I.Nosirov, Sh.E.Mustafaqulov, Q.A.Choriyev, B.I.Isroilov, N.G.Karimov, B.K.Tuxliyev, E.Hoshimov, O.T.Astanaqulov, X.X.Xudoyqulov va boshqa ko'plab taniqli iqtisodchi olimlar mamlakat investitsiya siyosatining ustuvor yo'nalishlari, mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari va mexanizmlarini takomillashtirish, tarmoqlar investitsiya faolligi va jozibadorligini oshirish kabi ko'plab yo'nalishlarda e'tiborga molik muhim ilmiy tadqiqotlar olib borishgan va ilmiy-amaliy ahamiyatga ega taklif va tavsiyalar ishlab chiqishgan⁵.

Ammo shunga qaramasdan, izlanishlarimizning ko'rsatishicha, hozirgi iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash bosqichi talablari doirasida tarmoqlar kesimida rivojlantirish, investitsiyalarni tarmoqlar hamda mahsulotlarning iqtisodiyotda tutgan o'rniga mos ravishda tabaqalashtirish, mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni yanada keng jalb qilish va rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, investitsiya loyihalari samaradorligini baholash usullari, hududiy investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarini kengaytirish va ulardan samarali foydalanish bilan bog'liq muammolar yetarlicha tadqiq etilmagan. Bu o'z navbatida ushbu dissertatsiya ishining mavzusini tanlash, dolzarbligini va zarurligini asoslashga xizmat qildi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-uslubiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

investitsiya loyihalarining iqtisodiy mazmuni va milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyatini ochib berish;

⁵Бекмурадов А.Ш. Глобальные тренды на мировых финансовых рынках и проблемы привлечения технологических инвестиций для реализации промышленной политики Узбекистана// Moliya va bank ishi elektron ilmiy jurnali. №2, yanvar, 2016-y.; Berkinov B.B. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar samaradorligi// Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. №5, 2015 y.; A.V.Vahobov, G.X.Razikova, Sh.X.Hadjibakiyev.; Иностраннные инвестиции и модернизация национальной экономики. Т.: «Молия» 2011 г. -124 с.; Исаджанов А.А. Узбекистан: потенциал инвестиционного сотрудничества// Иностраннные инвестиции в Республике Узбекистан. №1, 2008 г.; N.G'.Karimov. Iqtisodiy integrallashuv sharoitida investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish masalalari. – Т.: Fan va texnologiya, 2007. -214 б.; Махмудов Н. М. Инвестиции – ресурсный двигатель экономики// Иностраннные инвестиции в Республике Узбекистан. – Ташкент, № 2, 2008 г.; Муинов Ж, Федяшева Г. Прогнозирование инвестиционных процессов и механизмы дальнейшего улучшения инвестиционного климата // Отчет о научно-исследовательской работе за 2015-2017 гг., ИПМИ, 2017 г.; Садыков А.А. Основы регионального развития: теория, методология, практика//Монография. Ташкент. «IQTISOD-MOLIYA», 2005. -280 с.; B.K.Tuxliyev. Investitsiyalar va ularni moliyalashtirish tizmini takomillashtirish masalalari: Monografiya. -T, 2021. 176 b. Xaydarov N.X. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar imkoniyatlari//Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali, №1, 2011 y.; Хашимова Н.А. Агрегатный анализ динамики структуры инвестиционного потенциала Узбекистана// Экономический вестник Узбекистана. №5. 2016 г.; Чепель С.В. Системный анализ и моделирование перспектив устойчивого развития национальной экономики Узбекистана// Диссертация. Ташкент: IFMR, 2014. -с.116.; Юлдашев Ш.Г., «Иностраннные инвестиции как фактор экономического роста и либерализации национального воспроизводства Республики Узбекистан», Диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук, 2001 г. va boshqalar.

investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va tahlil qilishning zaruriyati, investitsiyalar iqtisodiy samaradorligini baholash va ularning huquqiy asoslariga oid konseptual asoslarni tadqiq etish;

investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholash shakllari va ko'rsatkichlarini aniqlash;

investitsiya loyahasini iqtisodiy va moliyaviy tahlil qilishning o'ziga xos jihatlarini yoritib berish;

xalqaro amaliyotda investitsiya loyihalarini baholash va tahlil qilish tajribasini o'rganish;

hududlar va korxonalarda investitsiya resurslari hamda loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholash usullarini ochib berish;

O'zbekiston va uning hududlarida investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholash;

investitsiyalar samaradorligini aniqlashda iqtisodiyotga investitsiyalar ta'sirini ekonometrik baholash;

milliy iqtisodiyotda davlat investitsiya dasturlari doirasida investitsiya loyihalari samarasini oshirish asoslarini aniqlash;

O'zbekistonda investitsiya loyihalari samarasini oshirishda investitsiya muhitini yaxshilash yo'llarini ishlab chiqish;

investitsiya loyihalari samaradorligini oshirishda rivojlantirish strategiyalari va konsepsiyalarining rolini kuchaytirish imkoniyatlarini ochib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasi hududlari iqtisodiyotiga jalb qilinayotgan investitsiya loyihalari doirasidagi resurslar tanlangan.

Tadqiqotning predmeti investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, korrelyatsiya va regressiya, qiyoslash va guruhlash, ekspert baholash ilmiy abstraksiyalash va boshqa usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligi"ga konseptual yondashuv investitsiyalarning iqtisodiy mazmuni, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi zaruriyati va ularning samaradorligini baholashga oid nazariy-uslubiy asoslarni o'zida mujassamlashtiruvchi ilmiy qarashlar asosida takomillashtirilgan;

investitsiya loyihalari doirasida jalb qilinayotgan investitsiya resurslari samaradorligining kapital sig'imi, investitsiya akseleratori, investitsiya multiplikatori ko'rsatkichlari bo'yicha umumiy natijasini shakllantirishda har bir ko'rsatkichning ahamiyatlilik darajasi va solishtirma vazniga ko'ra hisobga olish taklifi asoslangan;

"Olmaliq KMK" AJda boshqaruvni takomillashtirish, moliyaviy-iqtisodiy ahvolni mustahkamlash, debitorlik va kreditorlik qarzdorlikni kamaytirish orqali amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari iqtisodiy samaradorligini oshirishning 2027-yilga qadar prognoz qiymatlari aniqlangan;

O‘zbekiston hududlari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyaga ta’sir qiluvchi omillar ta’sirini baholash asosida 2030-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

investitsiya loyihalari samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari tizimlashtirilgan, ulardan investitsiya dasturlarini ishlab chiqish, investitsiya loyihalarini shakllantirish va investitsiya jarayonlarini monitoring qilishda foydalanish asoslangan;

investitsiya loyihalari samaradorligini oshirishning nisbiy ustunliklari va ustuvor yo‘nalishlari aniqlangan, ularni xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi investitsiya loyihalari monitoringini olib borish, ustuvor investitsiya loyihalariga xalqaro moliya tashkilotlari va xorijiy investorlar mablag‘larini jalb qilishda qo‘llash taklif qilingan;

investitsiya resurslari samaradorligi darajasiga baho berilgan va uning natijalaridan iqtisodiy islohotlar ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash, investitsiya samaradorligini oshirish va ustuvor investitsiya loyihalari portfelini yangilashda foydalanish zaruriyati ochib berilgan;

hududlarda investitsiyalar samaradorligini oshirish yo‘llari aniqlangan, ulardan xorijiy investitsiyalarni jalb qilish dasturlarini boshqarish, investitsiya loyihalari tizimli tahlilini amalga oshirish asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi yetakchi iqtisodchi olimlarning investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy-nazariy qarashlarini qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish, ilg‘or xorij tajribasini o‘rganish va umumlashtirish, investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholash ekspert natijalari hamda milliy va xalqaro nufuzli tashkilotlarning rasmiy manbalariga asoslanganligi, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlariga asoslanib jarayonni tahlil etish orqali xulosalar qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan nazariy va metodologik asoslarning mamlakat investitsiya siyosatida investitsiya loyihalarining samaradorligini baholash va ularni amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy apparatni boyitish, investitsiya loyihalarini boshqarish tizimini yaxshilashning konseptual asoslari, usullari va modellarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati davlat investitsiya dasturlaridagi loyihalarni sifatli ishlab chiqish, mamlakat nisbiy ustunliklarini hisobga olgan holda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning mintaqaviy dasturlarini ishlab chiqishni takomillashtirish, hududiy rivojlantirish dasturlari sifatini oshirish, mamlakatga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirish va iqtisodiyotning o‘zlashtirish salohiyatini oshirish omillarini aniqlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekistonda investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy-uslubiy va amaliy tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra investitsiyalarning iqtisodiy mazmuni, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi zaruriyati va ularning samaradorligini baholashga oid nazariy-uslubiy asoslarni o‘zida mujassamlashtiruvchi ilmiy qarashlar asosida takomillashtirilgan “investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligi”ga konseptual yondashuv oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun mo‘ljallangan “Introduction to taxation” nomli o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining 2022-yil 24-oktabrdagi 328-sonli buyrug‘i). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda investitsiyalarning iqtisodiy mazmuni, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi zaruriyati va ularning samaradorligini baholashga oid nazariy-uslubiy asoslar bo‘yicha bilimlarni kengaytirish hamda investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini hisoblash yuzasidan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish imkoni yaratilgan;

investitsiya loyihalari doirasida jalb qilinayotgan investitsiya resurslari samaradorligining kapital sig‘imi, investitsiya akseleratori, investitsiya multiplikatori ko‘rsatkichlari bo‘yicha umumiy natijasini shakllantirishda har bir ko‘rsatkichning ahamiyatlilik darajasi va solishtirma vazniga ko‘ra hisobga olish taklifi Olmaliq kon-metallurgiya kombinati AJ amaliyotiga joriy etilgan (Olmaliq kon-metallurgiya kombinati AJning 2023-yil 11-martdagi KS-0312-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Olmaliq kon-metallurgiya kombinati AJda mis katodini ishlab chiqarish 100,3% (shu jumladan, o‘z xom ashyosi hisobiga 100,4%), metalli rux 90,0% (shu jumladan, o‘z xom ashyosi hisobiga 101,6%), sulfat kislotasi 104,8%, affinajli oltin 100,9%, affinajli kumush 101,1%, portlandsement 91,3% ni tashkil etib, 2021-yil yakuni bo‘yicha mahsulotlar eksporti rejaga nisbatan 133,7%ni tashkil etgan;

Olmaliq kon-metallurgiya kombinati AJda boshqaruvni takomillashtirish, moliyaviy-iqtisodiy ahvolni mustahkamlash, debitorlik va kreditorlik qarzdorlikni kamaytirish orqali amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari iqtisodiy samaradorligini oshirishning 2027-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz qiymatlaridan Olmaliq kon-metallurgiya kombinati AJ amaliyotida foydalanilgan (Olmaliq kon-metallurgiya kombinati AJning 2023-yil 11-martdagi KS-0312-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Olmaliq kon-metallurgiya kombinati faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha uzoq muddatli konsepsiya va strategiyalarni shakllantirish imkoni yaratilgan;

O‘zbekiston hududlari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyaga ta’sir qiluvchi omillar ta’sirini baholash asosida 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlaridan Olmaliq kon-metallurgiya kombinati AJ amaliyotida foydalanilgan (Olmaliq kon-metallurgiya kombinati AJning 2023-yil 11-martdagi KS-0312-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida investitsiya resurslari iqtisodiy samaradorligini, investitsiya muhitini

yaxshilash, rivojlantirish strategiyasi va konsepsiyaning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur dissertatsiya ishi natijalari 10 ta, shu jumladan, 4 ta xorijiy, 3 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan va ijobiy baholangan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish, shu jumladan, 1 ta darslik, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etish tavsiya etilgan jurnallarda 8 ta (4 ta mahalliy va 4 ta xorijiy nashrlarda) maqolalar va 8 xalqaro hamda mahalliy ilmiy anjumanlarda tezislari chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 148 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligiga oid nazariy va huquqiy asoslar”** deb nomlangan birinchi bobida investitsiyalarning iqtisodiy mazmuni va milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati, investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va tahlil qilishning zaruriyati, investitsiya resurslarining loyihalar orqali iqtisodiy samaradorligini baholash va ularning huquqiy asoslariga oid konseptual asoslar xorijiy manba va adabiyotlarda keltirilgan yondashuvlar batafsil tahlil qilingan.

Klassik iqtisodiyot namoyondalari A.Smit, D.Rikardo va U.Petti, shuningdek, P.Samuelson, Yu.Fisher va boshqalarning asarlarida moliya resurslari va mexanizmlari, jumladan investitsiyalarning ilmiy-nazariy va uslubiy asoslari keng tadqiq etilgan va ishlab chiqilgan.⁶ Chet el iqtisodchi olimlaridan F.Modilyani, M.Miller, V.Aladin, Dj.Aleksandr, V.Beyli, I.Vaxrin, S.Valdaysev, P.Vorobyev, V.Jdanov, V.Igoshin, V.Kiseleva, Ya.Melkumov, S.Neshitoy, G.Nikolskaya, D.Tobin, U.Sharplar investitsiya faoliyati turlari va ularni moliyalashtirish manbalari, investitsiyalarning tasnifi va rivojlanishining ilmiy-amaliy asoslari,

⁶ Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. - М.: Ось-89, 1997. - Книга первая, Экономика : [В 2 т. : Перевод] / П. Самуэльсон, 413,[2] с. : ил., 24 см, М. НПО «Алгон» и др. 1997, Рикардо Д. Начала политической экономии и налогового обложения // Соч. - М.: Политиздат, 1955. - Гл. XX., У.Петти (1623 -1687). Главный его труд – «Трактат о налогах и сборах» (1662), Фишер С., Дорнбуш Р., Шмалензи Р. Экономика. – М.: Дело Лтд, 1993.

investitsiya faoliyati va muhitni moliyaviy-iqtisodiy baholash uslubiyoti va usullarini baholash bilan bog‘liq yo‘nalishlarda tadqiqot ishlari olib borganlar.

Shu bilan birga investitsiyalarning qo‘yilma obyektiga, muddatida investitsiyalash maqsadida iqtisodiyot sohasiga mulkchilik shakliga ko‘ra va risk nuqtayi nazaridan ochib berishga oid nazariy qarashlar bayon qilingan. Real investitsiyalar – mablag‘larni tarmoqlar, ishlab chiqarish vositalariga qo‘yish nuqtayi nazaridan, moliyaviy investitsiyalar – pul kapitalining o‘zgargan shakli nuqtayi nazaridan, intellektual investitsiyalar esa ilmiy imkoniyatlarni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish, mutaxassislar va ishlab chiqarishning boshqa ishtirokchilarini tayyorlash, tajriba almashish, litsenziyalar va kapitalning qayta ishlab chiqarilishini ta‘minlaydigan boshqa tadbirlarga uzoq muddatli mablag‘ joylash nuqtai nazaridan ochib berilgan.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan D.G.G‘ozibekov, A.V.Vahobov, N.X.Jumayev, N.H.Xaydarov, A.S.Jo‘rayev, M.P.Eshov, S.K.Xudoyqulov, A.U.Burxonov, E.I.Nosirov, Sh.E.Mustafaqulov, Q.A.Choriyev, B.I.Isroilov, N.G.Karimov, B.K.Tuxliyev, E.Hoshimov, O.T.Astanaqulov, X.X.Xudoyqulov va boshqa ko‘plab taniqli iqtisodchi olimlar mamlakat investitsiya siyosatining ustuvor yo‘nalishlari, mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari va mexanizmlarini takomillashtirish, tarmoqlar investitsion faolligi va jozibadorligini oshirish kabi ko‘plab yo‘nalishlarda e‘tiborga molik muhim ilmiy tadqiqotlar olib borishgan va ilmiy-amaliy ahamiyatga ega taklif va tavsiyalar ishlab chiqishgan.⁷

Qonunchilikda talqin etilgan kapital investitsiyalar jumlasiga asosiy fondlarni vujudga keltirish va takror ishlab chiqarishga, shuningdek, moddiy ishlab chiqarishning boshqa shakllarini rivojlantirishga qo‘shiladigan investitsiyalar ochib berilgan. Innovatsiya investitsiyalari jumlasiga texnika va texnologiyalarning yangi avlodini ishlab chiqish va o‘zlashtirishga qo‘shiladigan investitsiyalar kiradi. Ijtimoiy investitsiyalar jumlasiga inson salohiyatini, malakasi va ishlab chiqarish tajribasini oshirishga, shuningdek, nomoddiy ne‘matlarning boshqa shakllarini rivojlantirishga qo‘shiladigan investitsiyalar kiradi.

Investitsiya loyihasining samaradorligini oshirishda quyidagilarni ta‘minlash ilmiy asoslangan: loyiha tovar va xizmatlarni sotish evaziga olingan daromadlar qo‘yilgan mablag‘larni qoplanishi; investitsiyalar rentabelligini ta‘minlovchi foyda korxonaning xohishi darajasidan yuqori bo‘lishligi; investitsiyalarning qoplash muddati korxonaga uchun muvofiq kelgan davrga mos kelishi.

⁷A.V.Vahobov va boshq. Xorijiy investitsiyalar. “Moliya”, 2009. 78 b.; D.G. G‘ozibekov Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. T.: “Moliya”, 2003-yil. B.K.Tuxliyev, “Investitsiya va innovatsiyalar” – T. 2022 -176 b.; N.Haydarov “Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari” –T. 2003. 29 b.; B.I.Isroilov. Soliqlar moliyaviy hisobi va tahlili: muammo va yechimlar. T.:Monografiya. A.Jo‘rayev va boshq. Investitsiya loyihalari tahlili.-T.: “Sharq”, 2003. 18 b., A.U.Burxonov, X.X.Xudoyqulov “Moliya bozori va investsiyalar” -T. 2021. 528 b., Q.A. Choriyev Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish salohiyati va investiesion jozibadorlikni oshirish muammolari.-T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2010.-174 b., O.T.Astanoqulov. Korxonalar investitsiya faoliyati tahlili metodologiyasini takomillashtirish. Dok. Dissertasiya avtoreferati.

G.Birman, S.Shmidtlar investitsiya loyihalarini iqtisodiy baholashda quyidagilarga alohida e'tibor qaratgan: loyihaning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga ta'siri baholanadi; kiritilayotgan resurslar va olinayotgan mahsulotlar ularning milliy iqtisodiyot uchun haqiqiy qadr-qimmatini aks ettiradigan noaniq baholarda baholanadi; tahlilga iqtisodiyot uchun bevosita ta'sir etuvchi jihatlar kiritiladi (importga, eksportga, aholi bandliligiga, chet el valyutasiga, talab va taklifga, ekologik ahvolga va sh.k.), shuningdek, bilvosita ta'sirlar (boshqa sohalarga bo'lgan ta'siri, sh.k.) ham kiritiladi, ijtimoiy shart-sharoitlar hisobga olinadi va hokazolar⁸.

1-jadval

Investitsiya salohiyati omillariga oid zamonaviy ilmiy qarashlar⁹

Mualliflar	Ilmiy yondashuv va qarashlar
B.K.Tuxliyev	investitsiyalar - qonun hujjatlarida taqiqlanmagan daromad yoki ijtimoiy naf olish maqsadlarida iqtisodiy va ijtimoiy faoliyat obyektlari hamda inson kapitaliga kiritiladigan moliyaviy, moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan, intellektual mulkka bo'lgan huquqlardir.
D.G'.G'ozibekov	investitsiyalar nazarda tutilgan va tutilmagan, ammo ehtimoli bor risklar hamda ko'zlanayotgan samaralarni baholash asosida, o'z va o'zga mablag'lar qiymatining kapitallashuvi va jamg'arilishini ta'minlash maqsadida moliyaviy va real aktivlarga bog'lanishidan dalolat beradi.
Sh.E.Mustafaqulov	"Korxonaning investitsion potentsiali - korxonada faoliyatining samaradorligidan ko'ra ko'prok uning imkoniyat darajasini ko'rsatuvchi resurslar ma'nosida tushunilishi lozim shuningdek "Investitsion potentsial korxonada faoliyatining samaradorligi emas, balki uning imkoniyatlarini belgilovchi investitsiya resurslari demakdir".
S.A.Truxin	investitsiya salohiyatini mehnat, iste'mol, ishlab chiqarish, moliyaviy, institutsional, innovatsion, infratuzilma va tabiiy-resurs salohiyatlarini baholash orqali aniqlanadi.
D.D.Dengin	iqtisodiy-geografik sharoit, ishlab chiqarish omillari bilan to'yinganligi, aholi turmush darajasi, ularning iste'mol talabi mintaqada investitsiya salohiyatini belgilaydi.
L.D.Zubkova	investitsiyalarga bo'lgan ehtiyojni (investitsiya talabi va taklifi) qondiruvchi obyektiv xususiyatlar, vositalar, imkoniyatlar, omillar (investitsiya resurslari va ulardan foydalanish yo'nalishlarining mavjudligi) yig'indisi sifatida tushunadi.
L.V.Davidova, S.A. Markina	material-texnik, moliya va nomoddiy aktivlarni (obyektlarga mulk huquqi) o'z ichiga oluvchi investitsiya resurslarining muayyan tartibda jamlangan yig'indisi.
E.V.Gribova	bozorning jozibadorligi, arzon va malakali ishchi kuchining borligiga, infratuzilmaning rivojlanganligi, tabiiy resurslarning mavjudligi bilan aniqlanadi
S.V.Aleksandru, D.A.Raluka.	infratuzilma, mehnat salohiyati, aglomeratsiyalar va boshqa omillar investitsiya salohiyatini belgilaydi.

I.I.Mazur, V.D.Shapiro, N.G.Olderoggelar o'zlarining asarlarida investitsiya loyihalari samaradorligiga quyidagicha ta'rif berganlar: "Investitsiya loyihalarining samaradorligi loyihaning uning ishtirokchilarini maqsadi va qiziqishlariga

⁸Бирман Г., Шмидт С. Экономический анализ инвестиционных проектов М.: -Банки и биржи ЮНИТИ, 1997. – С. 613.

⁹Muallif ishlanmasi.

muvofigligini ko'rsatib beruvchi kategoriya hisoblanadi"¹⁰. Shunga ko'ra, loyihaning samaradorligini butunligicha baholash, shuningdek loyihada qatnashuvchi har bir ishtirokchining samarasini aniqlash talab etiladi.

Yuqorida keltirilgan iqtisodchi olimlarning fikrlarni inobatga olgan holda investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligiga quyidagicha mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi. Xususan, "investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligi – ishlab chiqarish rentabelligi ko'rsatkichlarini umumiy xarajatlar va ishlatilgan resurslarga nisbatan o'lchash orqali olinadigan va loyihadan ko'riladigan daromadlarni, xatarlarni hamda mablag'larning qaytarilishini vaqt komponenti nuqtai nazaridan baholashdir".

Ilmiy nazariya va qarashlarning qiyosiy tahlili asosida investitsiyalarni jalb qilishga asossiz ravishda keng imtiyoz va afzalliklar berilishining o'zi ulardan kutilayotgan iqtisodiy samaraga erishishni ta'minlab bera olmasligi asoslangan. Xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy samarasiga erishish uchun esa mamlakat iqtisodiyotida qulay shart-sharoitlarni ta'minlash va maxsus investitsiya islohotlarini amalga oshirish talab qilinadi.

Tadqiqotning **“Investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholash uslubiyoti”** nomli ikkinchi bobida investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholash shakllari va ko'rsatkichlari, investitsiya loyihasini iqtisodiy va moliyaviy tahlil qilishning o'ziga xos jihatlari, chet el investitsiya resurslarining iqtisodiyotga ta'siri va ularning sifat ko'rsatkichlarini baholash usullari ochib berilgan. Bunda, ayniqsa, investitsiyalar samaradorligini baholashda zamonaviy usullar, chet el kapitali samaradorligini oshiruvchi omillarni aniqlash va baholash usullari ishlab chiqilgan.


Iqtisodiy samaradorlik – bu ishlab chiqarish rentabelligi ko'rsatkichlarini umumiy xarajatlar va ishlatilgan resurslarga nisbatan o'lchash orqali olinadigan natijadir. Agar birinchi ko'rsatkich ikkinchi komponentga nisbatan yuqori bo'lsa, unda maqsadlarga erishiladi, barcha ehtiyojlar qondiriladi. Agar vaziyat aksincha bo'lsa, unda iqtisodiy ta'sir kuzatilmaydi va korxonaga zarar ko'radi. Iqtisodiy samaradorlikning mohiyati korxonaga uchun mavjud bo'lgan resurslardan ko'proq ishlab chiqarish natijalarini olish, resurslarni sotib olish xarajatlarini qoplashdir.

Hozirgi kunda cheklangan investitsiya resurslari ulardan samarali foydalanish zarurligini keltirib chiqaradi. Shu bilan birga, investitsiyalardan samarali va oqilona foydalanish muammosining ikkita jihatiga e'tibor berish lozim:

agar loyihani amalga oshirish uchun investitsiyalar hajmi belgilangan bo'lsa, unda ulardan foydalanishning eng katta ta'sirini olishga harakat qilish kerak;


agar kapital qo'yilmalar natijasida olinadigan natija aniqlansa, investitsiya resurslari sarfini minimallashtirish yo'llarini izlash maqsadga muvofiq.

¹⁰ Мазур И.И., Шапиро В.Д., Ольдерогге Н.Г. Управление проектами: Учеб.пособие для вузов /Под общ. ред. И.И.Мазура.- М.: ЗАО Издательство «Экономика», 2001. – С. 276.



1-rasm. Investitsiyalar samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar guruhlar¹¹

J.Danningning OLI modeli, K.Franko, F.Rentochini va G.Marzettilar tadqiqotlari va boshqa nazariyalarga asoslanib muallif investitsiyalarining samaradorligiga ta'sir ko'rsatadigan sakkizta guruh omillari tizimini taklif etgan (1-rasm). Ular institutsional, infratuzilma, ilmiy, ta'lim va texnologik, makroiqtisodiy holat, davlatning qo'llab-quvvatlashi, iqtisodiy erkinlik, bozor ko'lami, resurslar omillari guruhlaridan iborat¹².



2-rasm. Investitsiya loyhasini moliyaviy tahlil qilish yo'nalishlari¹³

Moliyaviy tahlilning boshlang'ich nuqtasi tashkilotning prognozli moliyaviy hisoboti bo'lib hisoblanadi. Mahalliy va xorijiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida moliyaviy tahlil quyidagi 2-rasmda keltirilgan bir nechta yo'nalishlardan iboratdir.

Investitsiya loyihalarining moliyaviy tahlili – bu korxonada faoliyati bilan bog'liq bo'lgan butun faoliyat davomida uning samaradorligini baholash usullari to'plamidir.

¹¹Muallif tomonidan tuzilgan.

¹² Franco C., Rentocchini F., Marzetti G. (2008) Why do firms invest abroad? An analysis of the motives underlying Foreign Direct Investments. Universita Studi di Trento Discussion Paper №17.

¹³ Muallif ishlanmasi.

Loyihani amalga oshirishning tashkiliy shakli korxonaga hisoblanadi, shuning uchun investitsiya loyihalarini moliyaviy tahlil qilish “korxonaga – loyiha” tizimida amalga oshiriladi.

Investitsiya loyihalari mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibidagi doimiy o‘zgarishlar bilan bog‘liqligi sababli, xalqaro amaliyotda keng qo‘llaniladigan moliyaviy tahlilning zarur bosqichi zararsizlik tahlili hisoblanadi. Zararsizlik tahlili investitsion tahlilning ajralmas qismi bo‘lib, u loyihaning asosiy maqsadga muvofiqligini va bir vaqtning o‘zida investitsiya loyihasining zarur samaradorligini ta‘minlaydigan ma‘lum foydaga erishishdagi asosiy to‘siqlarini aniqlashga imkon beradi.

2-jadval

Investitsiya loyihalarining moliyaviy tahlilida moliyaviy koeffitsiyentlarning asosiy guruhlar¹⁴

Moliyaviy koeffitsiyentlar	Moliyaviy koeffitsiyentlarning umumiy tavsivi
Likvidlik koeffitsiyenti	korxonaning mavjud qisqa muddatli majburiyatlarni bajarish qobiliyatini tavsiflovchi koeffitsiyent. Agar korxonaga joriy aktivlarni sotish orqali qisqa muddatli majburiyatlarini bajara olsa, likvid hisoblanadi
Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti	korxonaga mablag‘lari tarkibini o‘rganish asosida moliyaviy holatni baholash uchun mo‘ljallangan koeffitsiyent hisoblanadi
Biznes faolligi koeffitsiyenti	korxonaga aktivlaridan qanchalik samarali foydalanilayotganligini ko‘rsatadi. Ushbu koeffitsiyent aylana mablag‘lar va uzoq muddatli aktivlarni boshqarish samaradorligini aks ettiradi
Rentabellik koeffitsiyenti	mavjud kapitaldan foydalanish samaradorligini aniqlashga imkon beradi hamda ushbu korxonaga faoliyati qanchalik foydali ekanligini ko‘rsatadi

Moliyaviy holat ko‘rsatkichlari moliya menejmenti bilan bog‘liq quyidagi ikkita muhim masalaga, ya‘ni investitsiya qilingan kapitaldan olingan foyda qancha va korxonaning moliyaviy ahvoli qanchalik mustahkamligiga oydinlik kiritishga imkon beradi. Moliyaviy koeffitsiyentlarning asosiy guruhlar¹⁴ quyidagi 2-jadvalda keltirib o‘tiladi.

Xorijiy investitsiyalar samaradorligini baholashda «kapital qaytimi», «investitsiya multiplikatori», «kapital sig‘imi», «ICOR koeffitsiyenti», «investitsiyalarni jalb qilishda salohiyatdan foydalana olish indeksi», investitsiya loyihalari samaradorligi, investitsiyalarning iqtisodiy o‘zgarishga ta‘sirini korrelyatsion-regression tahlil qilish, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar mehnat unumdorligiga oid ko‘rsatkichlarni hisoblash usullari va yo‘llari taklif etilgan (3-jadval).

Milliy iqtisodiyotimiz xususiyatlaridan kelib chiqqan, mavjud statistik ko‘rsatkichlar imkoniyatlarini hisobga olgan holda dissertatsiyada bevosita qo‘llanilgan xorijiy investitsiyalar samaradorligini baholashning sifat ko‘rsatkichlarini hisoblash formulalarini tizimlashtirilgan holda jadval ko‘rinishida quyidagicha ifodalash mumkin. (3-jadval).

¹⁴Muallif ishlanmasi.

**Xorijiy investitsiyalar samaradorligini baholashning
sifat ko'rsatkichlari tizimi¹⁵**

Formulalarning muallif tomonidan xorijiy investitsiyalar uchun taklif qilingan modifikatsiyalangan shakli	Formulalarning xalqaro amaliyotda foydalaniladigan mavjud shakllari
1. Kapital qaytimi	
$XKQ = \frac{YaIM(t) - YaIM(t-1)}{(XI(t) - XI(t-1))}$ <p>bunda XKQ – xorijiy kapital qaytimi, YaIM(t), YaIM(t-1) – solishtirma narxlarda t-yildagi va avvalgi yildagi yalpi ichki mahsulot hajmi, XI(t), XI(t-1) – solishtirma narxlarda t-yilga nisbatan xorijiy investitsiyalar hajmi (3 yillik o'rtacha hajm tavsiya qilinadi)</p>	$KQ = \frac{\Delta MD}{K} \text{ yoki } KQ = \frac{\Delta MD}{\Delta F}$ <p>bunda KQ - kapital qaytimi, ΔMD - milliy daromad o'sishining solishtirma narxlardagi hajmi, K - kapital qo'yimlar hajmi, ΔF - asosiy fondlar o'zgarishi hajmi</p>
2. Investitsiya multiplikatori	
$XI(\text{mul.}) = \frac{YaIM(t)/YaIM(t-5)}{XI(t)/XI(t-5)}$ <p>bunda XI(mul.) – xorijiy investitsiyalar multiplikatori, YaIM(t), YaIM(t-5) – solishtirma narxlarda t-yildagi va undan 5 yil avvalgi yildagi yalpi ichki mahsulot hajmi, XI(t), XI(t-5) - solishtirma narxlarda t-yildagi va undan 5 yil avvalgi yildagi xorijiy investitsiyalar hajmi.</p>	$IM = \frac{\Delta MD}{\Delta I}$ <p>bunda IM - investitsiya multiplikatori, ΔMD - milliy daromadning o'zgarishi, ΔI - investitsiyalarning o'zgarishi</p>
3. Kapital sig'imi	
$XKS = \frac{XI(t)}{YaIM(t)} * 100\%$ <p>bunda XKS - xorijiy investitsiyalar bo'yicha kapital sig'imi, XI(t) - t-yildagi xorijiy investitsiyalar hajmi, YaIM(t) - t-yildagi yalpi ichki mahsulot hajmi.</p>	$KS = \frac{K}{ICh}$ <p>bunda KS - kapital sig'imi koeffitsienti, K - mahsulot ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan kapital umumiy summasi, ICh – muayyan davrda mahsulot (realizatsiyasi) ishlab chiqarish hajmi</p>
4. Iqtisodiy o'sishning qo'shimcha kapital xarajati (ICOR koeffitsienti)	
$ICOR(xi) = \frac{XI(t-1)/YaIM(t-1)}{YaIM(t)/YaIM(t-1)}$ <p>bunda ICOR(xi) – xorijiy investitsiyalar ICOR koeffitsienti, YaIM(t), YaIM(t-1) – solishtirma narxlarda t-yildagi va avvalgi yildagi yalpi ichki mahsulot hajmi, XI(t-1) - xorijiy investitsiyalarning t-yildan avvalgi yildagi hajmi.</p>	$ICOR = \frac{I(\text{ul.})}{\Delta YaIM}$ <p>bunda ICOR - koeffitsient, I(ul.) - yalpi ichki mahsulotda investitsiyalar ulushi, ΔYaIM – yalpi ichki mahsulot o'sish sur'ati.</p>
5. Jalb qilishda salohiyatdan foydalana olish indeksi (Inward FDI performance index)	
$I(sf) = \frac{TTXI(i)/TTXI(j)}{YaIM(i)/YaIM(j)}$ <p>bunda I – mamlakatda TTXIni jalb qilishda iqtisodiy salohiyatdan foydalana olish indeksi, TTXI(i) – i mamlakatga kiruvchi TTXI hajmi, TTXI(j) – jahondagi jalb qilinuvchi TTXI umumiy hajmi, YaIM(i) – i mamlakatning yalpi ichki mahsulot hajmi, YaIM(j) – jahondagi yalpi ichki mahsulot umumiy hajmini ifodalaydi.</p>	$I = \left(\frac{TTXI(j.\text{ul.})}{YaIM(j.\text{ul.})} + \frac{TTXI(j.\text{ul.})}{B(j.\text{ul.})} + \frac{TTXI(j.\text{ul.})}{E(j.\text{ul.})} \right) / 3$ <p>bunda I - jalb qilishda salohiyatdan foydalana olish indeksi, TTXI(j.ul.) – to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bo'yicha jahondagi ulush, YaIM(j.ul.) - yalpi ichki mahsulot bo'yicha jahondagi ulushi, B(j.ul.) - bandlik bo'yicha jahondagi ulushi, E(j.ul.) - eksport bo'yicha jahondagi ulushi.</p>

Investitsiya multiplikatori – bu investitsiyalarning milliy iqtisodiyotning ayrim tarmoqlariga ijobiy ta'siri darajasini ko'rsatadigan parametr. Bu mamlakat daromadlariga foydali ta'sir ko'rsatadigan investitsiyalar yordamida talabni oshirishga yordam beradi.

Investitsiya resurslari samaradorligining investitsiya akseleratori – bu investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida

¹⁵ Muallif tomonidan tuzilgan.

investitsiya jarayonini yaxshilashga qaratilgan metodologiya yoki chora-tadbirlar majmuidir.

Tadqiqotning asosiy maqsadi “Olmaliq KMK”da amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari xajmiga ta’sir etuvchi hisoblangan debitorlik va kreditorlik qarzdorlik ta’sirini regression va korrelitsion model tuzishi hamda ushbu model asosida prognoz qilishdan iborat. Tadqiqotda 2012-2022-yillar ma’lumotlari asosida oddiy va ko’p omilli regression va korreliyatsion ekonometrik model tuzilgan. Ushbu modellarni tuzishda hozirgi kunda ekonometrikada keng qo’llanilayotgan “Eviews 9” dasturidan foydalanamiz. Ekonometrik modelni tuzishda oldin o’zgaruvchilarni tanlab olamiz. Oddiy regression va korreliyatsion ekonometrik modelda natijaviy omil “Olmaliq KMK”da amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari xajmi (Y) va unga ta’sir qiluvchi omil debitorlik va kreditorlik qarzdorlik (X_i) qilib belgilab olindi.

$$Y_i = \beta_0 + \beta_1 X_i + \varepsilon_i \quad (1)$$

Oddiy regression va korreliyatsion ekonometrik modeldan tashqari ko’p omilli regression va korreliyatsion ekonometrik modelni tuzishda natijaviy omil investitsiya loyihalari xajmi (Y) va unga ta’sir qiluvchi omillar qilib, debitorlik qarzdorlik (X_1) va kreditorlik qarzdorlik (X_2) belgilanib, ko’p omilli regression va korreliyatsion ekonometrik formula ko’rinishiga ega.

$$Y = \beta_0 + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + \varepsilon \quad (2)$$

Shakllangan modelda tug’irlangan determinatsiya koeffitsienti shuni ko’rsatadiki, investitsiya loyihalari xajmi (Y)ni 99 foiz modelda shakllantirilgan omillar hisoblangan debitorlik qarzdorlik (X_1) va o’rta kreditorlik qarzdorlik (X_2)ga bog’liqdir. Qolgan 1 foiz esa hisobga olinmagan boshqa omillarga bog’liq hisoblanadi. Investitsiya loyihalari xajmi (Y)ga ta’sir qiluvchi omil hisoblangan debitorlik va kreditorlik qarzdorlik ta’siri darajasini koeffitsientni 5 foizlik muhimlik darajasida aniqlandi. Regression modelining debitorlik qarzdorlik (X_1) va kreditorlik qarzdorlik (X_2)ga koeffitsientlari P-qiymatining ehtimolligi 0,05 kichik bo’lib, ushbu koeffitsientlar investitsiya loyihalari xajmini o’zgarishiga ta’sir qilishini ko’rsatadi. Tuzilgan regression modelining Fisherning F-statistikasining P-qiymatining ehtimolligi 0,05 dan kichik bo’lib, debitorlik qarzdorlik (X_1) va kreditorlik qarzdorlik (X_2) mustaqil o’zgaruvchi omillarning bog’liq o’zgaruvchi hisoblangan investitsiya loyihalari xajmiga ta’sir qilishini ko’rsatadi. Tuzilgan modelning prognoz qilishini aniqlash uchun diagnostika tahlilini amalga oshiramiz. Birinchi navbatda, tuzilgan modelda qoldiqlarda avtokorreliyatsiya muammosi mavjudligini tekshiramiz. Qoldiqlarni avtokorreliyatsiyani Breush-Godfri testi orqali aniqlanadi.

Breush-Godfri testi natijasi kelib chiqan holda qoldiqlar o’rtasida avtokorreliyasiga mavjud emas. Chunki, Chi-kvadrat ehtimolligi darajasi 0,10 dan katta bo’lib, nolchi gepoteza shuni ko’rsatadi, qoldiqlarning avtokorreliyasiga mavjud emas gepotezasini qabul qiladi. Breush-Godfri avtokorreliyasi testidan keyin, qoldiqlarning geteroskedastik testini amalga oshiramiz. Geteroskedastik testini Breush-Pagan-Godfri testi orqali aniqlanadi

Breush-Pagan-Godfri geteroskedastik natijasi kelib chiqan holda qoldiqlar o’rtasida geteroskedastik mavjud emas. Chunki, Chi-kvadrat ehtimolligi darajasi

0,7627 ya'ni 0,10 dan katta bo'lib, nolchi gepoteza shuni ko'rsatadi, qoldiqlarning geteroskedastik mavjud emas gepotezasini qabul qiladi. Ya'ni, tuzilgan model qoldiqlari gomoskedastik tebranishga ega. Diagnostika testlari shuni anglatadi, tuzilgan modelda qoldiqlarda avtokorreliyasiya mavjud bo'lmasa, qoldiqlarda tebranishi gomoskedastik bo'lishi modelning prognoz qilish imkoniyatini beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, debitorlik qarzdorlik 1 foizga kaymaytirilsa, "Olmaliq KMK"ga amalga oshirilgan investitsiya loyihasini samaradorligi 1,58 foizga o'sishiga, kreditorlik qarzdorlik 1 foizga kaymaytirilsa investitsiya loyihasini samaradorligi 0,47 foizga oshishiga olib kelinadi (4-jadval).

4-jadval

"Olmaliq KMK"ning investitsiya loyihalari iqtisodiy samaradorligini oshirishning prognozi 2023-2027-yillar¹⁶, trl.so'm

Yillar	"Olmaliq KMK"ga amalga oshirilgan investitsiya loyihasini xajmi	Debitorlik qarzdorlik	Kreditorlik qarzdorlik
2023	13,61	0,72	0,26
2024	13,81	0,65	0,24
2025	14,03	0,58	0,21
2026	14,25	0,49	0,19
2027	14,47	0,41	0,15

Tadqiqot doirasida "Olmaliq KMK"ga amalga oshirilgan investitsiya loyihasini xajmini o'sishiga debitorlik qarzdorlik (X_1) va kreditorlik qarzdorliklari kamayishi ta'sirini va o'zaro bog'liqligiga asoslangan holda ekonometrik usullar orqali investitsiya loyihasini samaradoligini o'sishini 2027 yilgacha prognozi amalga oshirilgan

